



SURXON DAVLAT QO‘RIQXONASIDAGI YIRTQICH QUSHLARNING BIOEKOLOGIK XUSUIYATLARI

Raxmatullev Baxodir Amanovich

Termiz davlat universiteti dotsenti, Termiz, O‘zbekiston

Raxmatov Ulug‘bek Samandar o‘g‘li

Termiz davlat universiteti, magistr, Termiz, O‘zbekiston

Anotatsiya. Ushbu maqolada “Surxon” davlat qo‘riqxonasidagi yirtqich qushlarning bioekologik xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijasida 3 turkumga mansub 20 ta yirtqich qushlar aniqlangan bo‘lib, Surxon davlat qo‘riqxonasida *Aquila chrysaetos*, *Gypaetus barbatus* va *Gyps fulvus* turlarining ko‘p sonda uchrashi hamda har bir turning o‘z maqomi bo‘yicha tarqalish statusi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar. Surxon davlat qo‘riqxonasi, ornitofauna, biologik xilma-xillik, populyatsiya, ekotizim.

Annotatsiya. В данной статье представлены сведения о биоэкологических особенностях хищных птиц Сурханский государственный заповедник. В результате исследования было выявлено 20 видов хищных птиц, относящихся к 3 отрядам. На территории Сурханского государственного заповедника отмечено большое количество видов *Aquila chrysaetos*, *Gypaetus barbatus* и *Gyps fulvus*, а также зафиксирован статус распространения каждого вида в соответствии с его экологическим положением.

Ключевые слова: Сурханский государственный заповедник, орнитофауна, биологическое разнообразие, популяция, экосистема.

Abstract. This article provides information on the bioecological characteristics of birds of prey in the Surkhan State Reserve. As a result of the study, 20 species of raptors belonging to 3 orders were identified. A high abundance of *Aquila chrysaetos*, *Gypaetus barbatus*, and *Gyps fulvus* was recorded in the Surkhan



State Reserve, and the distribution status of each species according to its respective status was also documented.

Keywords: Surkhan State Reserve, ornithofauna, biodiversity, population, ecosystem.

Qushlar tabiat va jamiyat uchun juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, hasharotlar, kemiruvchilar va boshqa mayda jonzotlar sonini nazorat qiladi. Masalan, Burgut va Lochin kabi yirtqich qushlar tabiiy tanlanish orqali zaif hayvonlarni yo‘q qilib, ekotizim sog‘lomligini ta‘minlaydi.

Bundan tashqari, ayrim qushlar meva va urug‘larni iste‘mol qilib, ularni boshqa hududlarga tarqatishda hamda biologiya, ekologiya va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish uchun muhim ob‘ekt hisoblanadi.

Bu borada yirtqich qushlarning amaliy ahamiyati katta bo‘lib, ozuqa zanjirining yuqori pog‘onasida turadi. Yirtqich qushlar atrof-muhit holatini ko‘rsatuvchi muhim bioindikatoridir. Yirtqich qushlar biologiya va ekologiya fanlarida muhim tadqiqot ob‘ektidir. Ularning ko‘rish qobiliyati, uchish tezligi, ov qilish usullari ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi.

Qo‘riqxonalar qushlarining evolyutsiyasi, tasnifi, morfologiyasi, fiziologiyasi va ekologiyasi, shuningdek, ularning xulq-atvori, ko‘payishi va migratsiyasi o‘rganilgan [1].

Surxon davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo‘lib, yirtqich, noyob va xilma-xil tabiiy ekotizimlarga ega hudud hisoblanadi. Ushbu qo‘riqxonalar asosan tog‘li va tekislik landshaftlarini o‘z ichiga oladi. Bu hududda ornitofauna xilma-xilligi yuqori bo‘lib, ko‘plab yirtqich va muhofazaga muhtoj qush turlari uchraydi.

Surxon davlat qo‘riqxonasi 1986-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi noyob o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishdan iborat. Qo‘riqxonalar hududi 23.800 ming gektarga yaqin bo‘lib, tog‘li,



tekislik va daryo vodiylarini o'z ichiga oladi. Bu hududda ko'plab endemik va kamyob qush turlari uchraydi.

Surxon davlat qo'riqxonasi turli xil ekotizimlarga ega bo'lib, bu joyda qushlarning yashashi uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Hududda qurg'oqchil dashtlardan tortib, tog'li hududlargacha bo'lgan muhit mavjud bo'lib, bu qushlarning xilma-xilligi va tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatadi [2,3].

Material va metodika. Tadqiqot ishlari Surxon davlat qo'riqxonasi hududidagi ornitofaunaning turlar tarkibi va ekologik xususiyatlarini aniqlash uchun 2025-2026 yillarda amalga oshirildi va olingan natijalar asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida ornitologik monitoring, ekologik tahlil, nuqtali hisoblash, foto va kamera tuzoqlar, populyatsiyon tahlil, adabiyot tahlili va solishtirish va statistik tahlil kabi metodlar yordamida kuzatuv va tahliliy ishlar amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida olingan asosiy natijalar quyidagilardan iborat: Surxon davlat qo'riqxonasi hududida 20 ta yirtqich qush turlari qayd etilgan bo'lib, bu turlar orasida o'rmon, dasht va tog'li ekotizimlarida yashovchi yirtqich qushlar ko'p sonda uchrashi aniqlandi (1 jadvalga qarang).

1-javdal

**SURXON DAVLAT QO'RIQXONASI HUDUDIDA UCHROVCHI YIRTQICH QUSHLAR
TURLAR TARKIBI**

№	Aves	Qushlar	Tarqalishi	Status
1	<i>Bubo bubo</i> (Linnaeus, 1758)	Ukki	Kam uchraydi	oddiy,
2	<i>Athene noctua</i> (Scopoli, 1769)	Boyo'g'li	Keng tarqalgan	oddiy
3	<i>Hieraaetus pennatus</i> (Gmelin, 1788)	Pakana burgut	Kam uchraydi	Kamyob, 2 (VU:D)
4	<i>Aquila chrysaetos</i> (Linnaeus, 1758)	Burgut	Keng tarqalgan	Kamyob, 2 (VU:R)
5	<i>Gypaetus barbatus</i> (Linnaeus, 1758)	Boltayutar	Keng tarqalgan	Kamyob, 2 (VU:R)
6	<i>Aegypius monachus</i> (Linnaeus, 1766)	Tasqara	Lokal uchraydi	Kamyob, 3 (NT)
7	<i>Gyps fulvus</i> (Hablizl, 1783)	Oq boshli qumoy	Keng tarqalgan	Kamyob, 3 (NT)



8	<i>Milvus migrans (Boddaert, 1783)</i>	Qora kalxat	Mavsumiy uchraydi	Mavsumiy, SITES II
9	<i>Circaetus gallicus (Gmelin, 1788)</i>	Ilonxo‘r burgut	Kam uchraydi	Kamyob, 2 (VU:R)
10	<i>Falco cherrug J.E. Gray, 1834</i>	Itolg‘i	Kam uchraydi	Kamyob, 3 (NT)
11	<i>Falco subbuteo Linnaeus, 1758</i>	Jig‘oltoy	Mavsumiy kam uchraydi	Mavsumiy, SITES II
12	<i>Falco naumanni Fleischer, 1818</i>	Kuyka (cho‘l miqqiysi)	Kam uchraydi	Kamyob, 3(NT)
13	<i>Falco peregrinoides Temminck, 1829</i>	Sahro lochini	Kam uchraydi	Kamyob, 3 (NT)
14	<i>Neophron percnopterus (Linnaeus, 1758)</i>	Jo‘rchi	Kam uchraydi	Kamyob, 2 (VU:D)
15	<i>Strix aluco Linnaeus, 1758</i>	Pungqush	Keng tarqalgan	oddiy
16	<i>Accipiter nisus (Linnaeus, 1758)</i>	Qirg‘iy	Mavsumiy uchraydi	oddiy , mavsumiy
17	<i>Circus cyaneus (Linnaeus, 1766)</i>	Dala bo‘ktargisi	Mavsumiy uchraydi	oddiy , mavsumiy
18	<i>Falco tinnunculus Linnaeus, 1758</i>	Miqqiy	Keng tarqalgan	oddiy
19	<i>Buteo rufinus (Cretzschmar, 1827)</i>	Sariq sor	Mavsumiy uchraydi	oddiy , mavsumiy
20	<i>Buteo buteo Linnaeus, 1758</i>	Sor	Mavsumiy uchraydi	oddiy , mavsumiy

Tadqiqotlar natijasida qo‘riqxonada yirtqich qush turlari to‘liq o‘rganilib ularni muhofazaga olish va populyatsiyasini kengaytirishga doir masalalar ko‘rib chiqildi. Bundan tashqari, qirg‘iysimonlar turkumiga (Accipitriformes) mansub - Pakana burgut (kichik burgut), burgut, boltayutar, tasqara, oq boshli qumoy, jo‘rchi, qora kalxat, ilonxo‘r burgut, Lochinsimonlar turkumiga (Falconiformes) mansub - Itolg‘i, jig‘oltoy, kuyka (cho‘l miqqiysi), sahro lochini kabi noyob va kamyob turlar borligi aniqlandi. Bu turkum vakilarining qo‘riqxonada Tasqara lokal uchrashi, Pakana burgut, Ilonxo‘r burgut, Itolg‘i, Kuyka (cho‘l miqqiysi), Sahro lochini va Jo‘rchi qushlarining kam uchrashi, Burgut, Boltayutar, Oq boshli qumoy qushlarining keng tarqalganligi va Qora kalxat va Jig‘oltoy qushlarining mavsumiy kam uchrashi aniqlandi [4].

Shuningdek, Surxon davlat qo‘riqxonasi hududida yirtqich qushlarning ekologik



moslashuvi o'rganildi. Masalan, yirtqich turlar qatoriga kiritilgan Boltayutar (*Gypaetus barbatus*) Markaziy Osiyoda kamyob uchraydigan yirtqich qushlardan biridir. Biologik xususiyatlari: qanot yozilganda uzunligi 2,5–2,8 m gacha yetadi, qoyali hududlarda uya quradi, ozuqasining 70–90% qismi suyaklardan iborat.

Tadqiqot davomidagi monitoring natijalari shuni ko'rsatadiki, noxush ekologik omillar (iqlim o'zgarishlari, noqonuniy ovlanish) populyatsiyaning kamayishiga olib kelgan. Shu bois, ularning monitoringi va yashash muhitlarini tiklashga qaratilgan tadbirlar samarali natijalar berganligi qayd etildi.

Xulosa. Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo'lib, yirtqich qushlar faunasiga ega muhim tabiiy hudud hisoblanadi. Qo'riqxonadagi yirtqich, noyob va yo'qolib ketish xafida bo'lgan qushlarni qayd qilish orqali ularning areali, soni va ekologik xususiyatlarini aniqlash, noyob turlar sonining oshishi yoki kamayishini muntazam o'rganish, tabiiy muhitdagi o'zgarishlarga ilmiy baho berishga imkon yaratish, kamyob yirtqich qushlarning oziqlanish zanjiridagi o'rni, ekotizim barqarorligiga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan o'rganish zarur. Shuningdek, Surxon davlat qo'riqxonasidagi yirtqich qushlarni asrash ularning yashash muhitini yaratish va ularni himoyalash bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иличев В.Д., Карташёв Н.Н., Шилов И.А. Общая орнитология. Изд. Высшая школа, М. 1982. – 464 с.
2. Богданов О.П. Редкие животные Узбекистана. Ташкент, 1992. -370 с
3. Surxon davlat qo'riqxonasi rasmiy hisobotlari. – Termiz, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi. II-tom. Toshkent. 2019.